



**MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI**

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabr "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-son qarori.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashri. T; 2022 –yil
3. Boboqulova N. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda mariya Montessori metodikasidan foydalanish. Academic research in educational sciences 1231-1232 b.
4. Djumanova D.M. "Bola shaxsiga yondashuv" «Zamonaviy ta'lim» ilmiy-amaliy, ommabop jurnali, 2012 yil, 1-son. 50-53b.
5. Бердалиева Г Монтессори педагогикасининг 10 қонидаси. Маърифат. Т.: 10.2018 й.

INSON HAYOTI VA FAOLIYATINING BARCHA SOHALARIDA GENDER TENGLIKNING AHAMIYATI

Qrtiqova Nodira Mamajonovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda ta'lim, ilm-fan, sport hamda sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash, o'zbek oilalarida gender streotiplar asosida xotin-qizlar va erkaklar orasida kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etish, bugungi kunda oilalarda barqaror muhitni ta'minlashning chora-tadbirlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, gender streotiplar, ta'lim, ilm-fan, sog'liqni saqlash sohasi, xotin-qizlar huquqlariga oid qonunlar, oilaviy zo'ravonlik, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi muammolar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida inson qadri va manfaatlarini himoya qilish, har qanday holatda ham uning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi yotibdi. Yangi O'zbekistonda, ya'ni inson huquqlari kafolatlari ta'minlangan demokratik va fuqarolik jamiyatida ijtimoiy-siyosiy faol erkak va ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtiroki talab etiladi. Mazkur ishtirokni ko'pchilik bo'lib ta'minlash esa hammamizning zimmamizdagi vazifadir. Shu bois, jamiyatda xotin-qiz va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratishda ilmiy asoslangan g'oyalar, takomillashgan qonunlar hamda samarali amaliy choratadbirlar bilan ishlarni davom ettirish muhim bo'lib qolmoqda.

2021-yil 28-maydagi O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senatining

"2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" SQ-297-IV-sonli qarorining 4-bobi Gender strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari deb nomlanib, bobning 3-paragrafi ta'lim, ilm-fan, sport hamda sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash deb nomlanadi. Paragrafda

maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, sog'liqni saqlash hamda erkaklar ulushi kam bo'lgan boshqa sohalarga ayollar bilan teng ravishda erkaklarni jalb qilishga doir faoliyatni qo'llab-quvvatlash;

xotin-qizlar va erkaklarning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish, zarur axborot va xizmatlarga erkin hamda teng ravishda ega bo'lishini ta'minlash, oilani rejalashtirishda ularning shaxsiy hayotiga uchinchi shaxslarning aralashishiga yo'l qo'ymaslikni qo'llab-quvvatlash;

xotin-qizlar va erkaklarning tibbiy madaniyatini oshirish, ularning reproduktiv salomatligini mustahkamlash, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarni oldini olish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishlarning oldini olishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash kabi masalalar o'z aksini topgan. [2]

Gender stereotiplar deganda insonda qanday tasavvur uyg'onadi? – Gender stereotiplar – erkak va ayollar uchun standartlashtirilgan va qotib qolgan tasavvurni anglatadi. Gender stereotiplari guruhlaridan birida erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlik mehnatning muayyan turlari bilan shug'ullanish jarayonida o'z ifodasini topgan. [4.113 b.]

O'zbekiston Respublikasida 2019-yilning 2-sentabrida qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-sonli qonun mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi [1]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", deb belgilangan [3]. Qonunda qayd etilganidek, gender tushunchasini xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatilgan. Gender tenglik ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, ularga hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishi xususida qonunning 3-moddasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar – jinslarning notengligini bartaraf etish, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy yoki asos bo'ladigan tengligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarga erishish uchun davlat organlari tomonidan ko'riladigan huquqiy, tashkiliy hamda institutsiyaviy xususiyatga ega chora-tadbirlar;

gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati;

gender statistikasi – davlat statistikasining jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har xil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi;

gender-huquqiy ekspertiza – normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish;

jins bo'yicha bevosita kamsitish – jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari hamda erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash, shu jumladan oilaviy holati, homiladorligi, oilaviy majburiyatlari tufayli kamsitish, shuningdek, shahvoniy shilqimlik qilish, teng mehnat va malaka uchun har xil haq to'lash;

jins bo'yicha bilvosita kamsitish – bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo'yadigan vaziyatlarni, holatlarni yoki mezonlarni yaratish, shu jumladan, gender tengsizlikni ommaviy axborot vositalari, ta'lim, madaniyat orqali targ'ib etish, muayyan jinsdagi shaxslar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar yoxud talablar belgilash. [1]

Shuningdek, gender tenglik masalasiga to'g'ridan to'g'ri muammoning milliy etnik asoslarini tahlil qilmay yondashish holati ham turmush tarzimizning shartli ravishda g'arblashayotganini ko'rsatadi deyish mumkin. Bu esa o'z o'rnida oilaviy ichki nizo va e'tirozlarga sabab bo'ladi.

Amaliy tavsiyalar.

O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar muammolarini o'rganishda gender stereotiplarning bugungi kunda bartaraf etishning ahamiyatli xususiyatlari yuzasidan quyidagicha tavsiyalar berish lozim:

1. O'zbek oilalarida ayrim erkaklarda soxta ko'rinishdagi hurmatga bo'lgan moyillikning kuchliligi, qadrtalablik stereotiplari tenglik, totuvlik va hamkorlik munosabatlarini o'rnatilishiga xalal beradi.

2. Qadrtalablik, hurmattalablik, o'ziga past baho berish, gina saqlash kabi oilada ota-onadan olgan andoza, qalbda yillar davomida blok-araz, alamlarning saqlanib qolinishi natijasida muammoni yechib bo'lmaydi.

3. Ayol kishining o'z qadr-qimmatini anglamasligi, o'ziga bo'lgan ishonchning yetishmasligi o'zidan va yaqinlaridan qoniqmaslikka olib keladi. Bu o'z o'rnida oilada ijobiy-psixologik munosabatlar o'rnatilishiga xalal beradigan hissiy-psixologik omil sifatida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019-yildagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"<https://lex.uz/docs/4494849>
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" SQ-297-IV-sonli qarori. 2021-yil 28-may
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/20596>
4. Mirxamidova D.M. "O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar muammolarini o'rganishda gender stereotiplarning ahamiyatli xususiyatlari" nomli maqola.